

YUNESKO Amir Temur va uning avlod-ajdodlarini ulug'lamoqda

Ashuraliyeva Shohista Shavkat qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro nufuzli tashkilot YUNESKO tomonidan, shuningdek boshqa buyuk davlatlar ya'ni Amerika, Germaniya, Xitoy, Misr, Pokiston, Eron, Afg'oniston, Turkiya kabi davlatlar tomonidan Amir Temurning jaxonda tutgan o'rni, tarixi va faoliyatiga bo'lgan qiziqishlari, Amir Temur shahsiga ko'rsatgan extiromlarini ko'rishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: YUNESKO, BMT, Toshkent, Amir Temur, Ipak yo'li, Rteladze, Markaziy Osiyo, Samarqand, Muhammad Tarag'ay Ulug'bek.

Mustaqillik tufayli xalqimiz o'zligini tanidi, buyuk bobolarimizning tarixdagi o'chmas jasorati va yuksak dahosi haqidagi asl haqiqat ro'yobga chiqdi. Bu ulug'ver ishlarning debochasi sifatida mamlakatimizda Sohibqiron Amir Temur haqidagi adolat qaror topdi. Eng katta muammo – jahon jamoatchiligining fikrini o'zgartirish edi. Sobiq tuzum davrida Amir Temur shaxsi va faoliyatiga biryoqlama baho berilgan, buning asoratini davolash oson emasdi. Boz ustiga, YuNeSKO katta sarkardalarning yubileyini nishonlamas edi...

O'zbekiston bilan YUNESKO o'rtasidagi munosabatlar mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, yangi bosqichga ko'tarildi. 1993-yil 29-oktyabrdan O'zbekiston YUNESKOning to'laqonlik a'zosi bo'ldi. Usha paytdayoq YUNESKO dasturiga buyuk munajjim va davlat arbobi Muhammad Tarag'ay Ulug'bek tavalludining 600 yilligi nishonlash taklif qilindi. YuNeSKO rahbariyatiga «Amir Temur boshqa sarkardalardan farqli ravishda bunyodkor shaxs bo'lgan, qay joydan bir g'isht olsa, o'rniga o'n g'isht qo'ydirgan, bir daraxt kesdirsa, o'rniga o'n ko'chat ektirgan, Sohibqironning dunyoda tinchlik o'rnatish, Yevropani xalos etishdagini xizmatlarini, insoniyat sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasini dunyoga isbotlab beramiz», -dedi I.A.Karimov. Dastavval «Amir Temur – jahon tarixida» qomusiy kitobi tayyorlandi. 1996 yili kitob xorij tillariga tarjima qilingach, xalqaro jamoatchilik va dunyo tarixchilarining katta qiziqishiga sabab bo'ldi. YuNeSKO Amir Temur tavalludining 660 yilligini xalqaro miqqosda keng nishonlash haqida qaror qabul qildi. 1996 yil mamlakatimizda Amir Temur yili, deb e'lon qilindi, yurtimiz bo'ylab bu ulug' to'yga tayyorgarlik boshlandi. 1996 yil 24 aprelda Parij shahrida «Temuriylar davrida ilm-fan, madaniyat va maorifning gullab-yashnashi» haftaligi boshlandi. O'sha kuni Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov YuNeSKO Ijroiya kengashi sessiyasida, YuNeSKO qarorgohida temuriylar davriga

bag'ishlangan ko'rgazma ochilishida nutq so'zladi. Yurtdoshlarimiz yaxshi eslaydi: ko'rgazma boshlanishiga ozgina vaqt qolganda, zalga kutilmaganda Fransiya Prezidenti Jak Shirak kirib kelgan. Islom Karimov Jak Shirakni ekspozitsiya bo'ylab aylantirib, Amir Temurning insoniyat sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi haqida zavq bilan so'zlab bergen. O'shanda Jak Shirak «Islom Karimovdek o'z Vatani tarixini bunchalik mukammal biladigan, ulug' ajdodlari nomini bunday yuksak e'zozlaydigan davlat rahbari dunyoda kamdan-kam bo'ladi», deb qoyil qolgan. Fransiya Prezidenti O'zbekiston rahbariga yuksak hurmat ifodasi sifatida Amir Temurning 1402 yili Fransiya Qiroli Sharl VI ga yo'llagan nomasini taqdim etgan. Bu eksponat bugun Temuriylar tarixi davlat muzeyidagi eng noyob tarixiy hujjatlardan hisoblanadi. Aynan mana shu tarixiy haftalikda Birinchi Prezidentimizning jasorati va fidoyiligi bois dunyo ahli Parijda nima uchun XV asrdayoq Amir Temurga yodgorlik o'rnatilib, unga «Yevropaning xaloskoriga» degan chuqur ramziy ma'noli so'zlar bitilganini, Sohibqiron xizmatlari tufayli Osiyo va Yevropa tarixda birinchi marta yagona jo'g'rofiy-siyosiy makonda birlashganini teran anglatdi – jahon Amir Temurni buyuk bunyodkor sifatida tan oldi. Haqiqatdan ham, YUNESKO kotibiyati Amir Temur tavvaludining tantanalariga katta e'tibor qaratib kelmoqda. Jumladan, YUNESKO "Ipak yo'li – muloqot yo'li" xalqaro ilmiy ekspeditsiyasining koordinatori hazrati Amir Temur haqidagi quyidagi so'zları e'tiborga molikdir: „Temur nihoyatda serqirra, faoliyati murakkab siymo, ulug' zot. U, bir tomonidan, dunyoni titratgan jahongir, ikkinchi tomonidan, dunyo avlodlarini ma'naviy, moddiy qarzdor qilgan buyuk inson! Tarixda buyuk sarkardalar ko'p bo'lган. Agar fransuz sarkardasi Napoleon bilan Temurni qiyoslaydigan bo'lsak, ikkinchisi birinchisidan o'n chandon ustun turadi. Napoleon jahongir bo'lib, brogan joylarini vayron etib, bunyodkorlikka kam e'tibor bergen bo'lsa, Temur o'z davrining buyuk sarkardasi – fotihi sifatida ko'p yerlarni zabit etdi. Lekin u yerlarda ham binolar qurdirdi, kannalar qazdirib, suv chiqartirdi. Ammo bosib olgan joylaridagi eng yaxshi ustalarni, olimu fozillarni o'zi bilan birga olib yurib, bebaxo binolar bilan ko'pgina go'zal shaharlar bezagiga bezak, ko'rkiga ko'rk qo'shdi.”¹

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning tashabbusiga ko'ra Samarqandda o'z ishini boshlagan "Moddiy va nomoddiy madaniy merosni saqlash: dolzarb muammolar va ularni hal etish strategiyalari" xalqaro konferensiyasiga dunyoning 40 ta mamlakatidan tashrif buyurgan 300 ga yaqin taniqli sharqshunoslar – akademiklar, fan doktorlari, professorlar ishtirok etishdi.

¹ YUNESKO "Ipak yo'li – muloqot yo'li" xalqaro ilmiy ekspeditsiyasining koordinatori senegallik Dudu D'enning Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag'ishlagan nutqidan.

Taklif etilganlar orasida YuNESKO bosh direktori Adri Ozule ham bor. Bu Adri Ozulexonimning Ozbekistonga birinchi tashrifi edi.

Xalqaro konferensiya ish boslashidan oldin YuNESKO bosh direktori Adri Ozule buyuk Amir Temur etti bog'idan biri – Bog'ishamolga o'xshab qayta qurilgan yangi bog'da mehmonlar uchun tashkilotchilar tomonidan xalqaro konferensiya va madaniy meros haftaligi mehmonlariga O'rta asrlardagi hayotni qayta tiklandi. Odre Azulexonim ham mazkur bog'da tashkil etilgan sahna ko'rinishlar va namoyish etilgan hunarmandchilik namunalarini ko'zdan kechirdi.

Shunda har bir mehmon Temuriylar davri voqeligiga o'zlarining eski kiyimlari va bosh kiyimlari, Samarqand ustalarining mahorat bilan ishlangan hunarmandchilik satrlari, sharqona bozorning ajoyib namunalaridan bahramand bo'lischdi. Teatrlashtirilgan va folklor spektakllaridan iborat chiqishlar yanada tarixga qaytishga turtki berdi.

Xulosa, Bir so'z bilan aytganda, shubhasiz, Parijdagi bayram tadbirlari ulug' davlat arbobi, mohir sarkarda, buyuk bunyodkor, fan, madaniyat, san'at va ta'lim homiysi bo'lmish Sohibqiron Amir Temurning jahon ma'daniyati, san'ati, fani, ilmiga, xususan, Sharq sivilizatsiyaga qo'shgan ulkan hissasini va mustaqil O'zbekistonimizning naqadar chuqr ma'naviy ildizlarga ega ekanligini va tobora oshib borayotgan xalqaro nufuzini dunyoga yana bir bor namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Lyusen Keren, Akmal Saidov Amir Temur va Fransiya. Toshkent „Adolat” 1996.
2. Sharafiddin Ali Yazdiy: Amir Temur ajdodlari. Qomuslar bosh tahririysi Toshkent
3. Aziz Qayumov Amir Temur qissalari. Toshkent „Yozuvchi” nashroyoti.
4. Lyusben Keren Amir Temur saltanati. Toshkent „Ma'naviyat” 1999.
5. Мамараджабов, Б. (2023). САУДИЯ АРАБИСТОНИДАГИ ЎЗБЕК МУХОЖИРЛАРИ ТАРИХИ: МУВАФФАҚИЯТЛИ АССИМИЛЯЦИЯ ВА ЙЎҚОТИЛГАН МИЛЛИЙ ИДЕНТИКЛИК. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/6).
6. Mamarajabov, B. N. M. O. G. (2023). MARKAZIY OSIYODA ARABLAR BILAN BOG'LIQ IJTIMOIY QATLAMLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(5), 1048-1052.
7. Mamarajabov, B. N. M. O. G. (2022). ARABISTON YARIM OROLIDA DAVLATCHILIKNING SHAKLLANISHI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10), 118-121.